



RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna

Andijon davlat tibbiyot instituti "O'zbek tili va adabiyoti, tillar" kafedrasida o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: zumakovadilbarhon@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16832729>

Annotatsiya: *Mustaqil ta'lim – muayyan fan dan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida bajariladi. Ushbu maqolada mustaqil ta'limni tashkil etish yo'llari haqidagi ma'lumotlar berilgan bo'lib, bugungi kunda mavjud materiallar asosida shakllantirilgan.*

Kalit so'zlar: *bilim, ko'nikma, malaka, mustaqil ta'lim, o'quv dasturi, ko'nikma darajasi, elektron konspekt, fan dastur.*

Аннотация: *Самостоятельное обучение – это форма обучения, при которой формирование и уровень освоения знаний, умений и компетенций по конкретному предмету, определяемых учебной программой и обязательных для освоения обучающимся, осуществляется на основе советов и рекомендаций преподавателя, а также его готовности к распространению знаний. В данной статье представлена информация о способах организации самостоятельного обучения, которое формируется на основе имеющихся в настоящее время материалов.*

Ключевые слова: *знания, умения, компетенции, самостоятельное обучение, учебная программа, уровень владения, электронный конспект, программа по предмету.*

Annotation: *Independent learning is a form of education in which the formation and level of mastery of knowledge, skills and competencies in a particular subject, which are determined by the curriculum and must be mastered by the student, is carried out on the basis of the teacher's advice and recommendations, and his readiness for the distribution of knowledge. This article provides information on the ways of organizing independent learning, which is formed on the basis of currently available materials.*

Keywords: *knowledge, skills, competencies, independent learning, curriculum, skill level, electronic synopsis, subject program.*

KIRISH

Mustaqil ta'limni tashkil etish talabalarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo'nalish sanaladi. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish asosi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hisoblanadi. U yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga



yo‘naltirilgan. Shu sababli fanlarning nazariy asoslarini amaliy ko‘nikma darajasida o‘zlashtirish bo‘lishida mustaqil ta‘limning roli beqiyosdir [1, 2].

Ta‘lim jarayonida talabalar mustaqil ishini tashkil etish uchun “Ta‘lim to‘g‘ri-sada”gi qonunda ko‘rsatilgan talablar quyidagilar:

- 1.O‘quv tarbiya jarayonining sifatini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish.
- 2.Uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish.
- 3.Mutaxassisni o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish.
- 4.Innovatsion faoliyatga ega bo‘lgan, ijodiy fikr laydigan shaxsni shakllantirish.

Mustaqil ish-bu shunday bilim olish bo‘lib, bunda talabalarning o‘z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo‘yishi, o‘z faoliyatini rejalashtirish va uni amalga oshirish hamda o‘zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanadi. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishdagi asosiy vazifasilar qanday shakldagi mashg‘ulotda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik va didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishdagi bosh tamoyil talabalarni individual ishlashga urinishlarini ta‘minlash kerak. Bunda ayrim topshiriqlarni normal va passiv bajarishdan uni ongli va faol bajarish sari yo‘llash asosiy o‘rin tutishi kerak, maqsadi esa, avval o‘quv mazmuni bilan, keyin esa ilmiy axborotlar bilan anglab hamda mustaqil ishlashga o‘rgatish va rivojlantirish malakasini muntazam ravishda oshirib borish ko‘nikmalarini hosil qilishdir. Mustaqil ishlar tizimi deyilganda biz bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan va bir-birini mazmunan to‘ldiradigan va umumiy maqsadga bo‘ysunadigan topshiriqlar mazmunini tushunamiz. O‘qituvchi topshirig‘iga binoan va uning nazorati ostida talabalar tomonidan o‘qituvchining bevosita ishtrokisiz maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ish talabalarning mustaqil ishi deyiladi. Mustaqil ishlar o‘quv jarayonining tashkil etuvchisi hisoblanadi. Har bir mashg‘ulot uchun maxsus vaqt ajratilib, ular epizotik xarakterda emas, balki reja asosida izchil tahskil etilishi lozim, ana shundagina ta‘limda ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Talabalarning faol mustaqil ishlarini faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo‘lganidagina amalga oshirish mumkin. Bunday eng jiddiy omil kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik. Talabalarni mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillar quyidagilar:

1. Qilinayotgan ishlarning foydaliligi. Agar talaba o‘z ishlarini ma‘ruza jarayonida, metodik qo‘llanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashg‘ulotlar, maqolalar tayyorlashda mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishga munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o‘zgaradi, hamda sifati ham ortadi. Shunga ko‘ra talabani ruhan shu ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko‘rsatib berilishi kerak.



2. Talabaning ijodiy faoliyatidagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Xususan kafedra tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va.hk.

3. Fan olimpiyadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish.

4. Talabalarga mustaqil ta’limni bajarish yuzasidan fan o‘qituvchilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta’lim turlari – rang-barang va turli electron ko‘rinishlari – fan o‘qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi. Talabalar ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar yechadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Tadqiqot maqsadi: turli manbalardan foydalangan holda talabalarda mustaqil ta’lim tashkil etish yo‘llarini aniqlash va tahlil qilish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Talabalarda mustaqil ta’limning tashkil etish bo‘yicha J.O.Tolipova va A. T.G‘ofurovlarning qarashlarida fikr inson faoliyati, unung o‘z kuchi, qudrati va bilimni tashkil etuvchi ma’naviy insoniy sifatdir degan fikirlari ilgari surilgan [1 2, 4].

Talabalarda mustaqil ta’limning tashkil etish vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- 2) kerakli ma’lumotlarni izlab topish, o‘rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- 3) axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- 4) o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- 5) electron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlash;
- 6) internet tarmog‘idan maqsadli foydalanish;
- 7) berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilash;
- 8) Ma’lumotlar bazasini tahlil etish;
- 9) topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- 10) O‘quv xonalarida mustaqil holda ilmiy axborotlarni ola bilish;

Amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq va mustaqil ishlarni mashg‘ul o‘qituvchi va guruh talabalari o‘rtasida himoya qila bilish hisoblanadi. Har qanday jamiyatda bo‘lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero jamiyat taraqqiyotida mutaxassis kadrlar omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifat va samaradorligini oshirish borasida



ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim tizimidagi pedagogik faoliyatimiz va hozirgi zamon o'qituvchilarning ijodiy ish faoliyatini o'rganish va tahlil qilish asosida ularning amaliy-ijodiy tayyorgarlik mazmuni va o'qitish metodlarini takomillashtirishga bag'ishlangan maqsadli izlanishlar tasdiqlanmoqdaki, bugungi kunda oliy malakali o'qituvchilar tayyorlashda bir qancha nomuvofiqliklar va ziddiyatlar mavjud.

NATIJALAR

Talabalarning o'quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ularning o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarish va bajargan mustaqil topshiriqni mas'ul o'qituvchi va guruh talabalari oldida himoya qila bilish kabi bilim va malakalarikiradi.

MUHOKAMA

Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish-mustaqil o'quv faolligini shakllantirishning yagona usuli, ularning mustaqil o'quv faoliyati bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Talabalarda ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish uzluksiz va uzviy amalga oshirilmog'i lozim. Bizningcha, bu yo'nalishda yuqori natijaga erishish ta'lim jarayonida, xususan ma'ruza va amaliy ijodiy mashg'ulotlarida talabalarda o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlashga qiziqish hosil qilish, o'quv axborotlarni sig'imini darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil holda o'qish asosida kengaytirishga ishtiyoq hosil qilishga asoslanadi. Bo'lajak mutaxassislarning har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlayoladigan, izlanuvchan kadrlar bo'lib yetishishini ta'minlash, ularni o'z ustida ishlashga yo'naltiruvchi yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondoshish, ya'ni o'quv jarayonini ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan tavsifga ega bo'lishini ta'minlashga oid dastlabki izlanishlar o'tgan asrning 50-yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, "o'qitish texnologiyasi" iborasi ham, birinchi marta amerikalik olim Skinner tomonidan ishlatilgan.

XULOSA

Talabalarning o'quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o'ynaydi. Talabalarda ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish uzluksiz va uzviy amalga



oshiriladi. Talaba elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlay oladi. Mustaqil ta’limni tashkil etish orqali, har nomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlay oladigan, izlanuvchan avlodni shakillantiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T.-Biologiya ta’lim texnologiyalari. Metodik qo‘llanma “O‘qituvchi” T.:2002 yil.
2. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T.-Biologiya o‘qitish metodikasi. Akademik litsey va kasb-hunar kolledjlari o‘qituvchilari uchun o‘quv metodik qo‘llanma.- T.: “Bilim” 2004 yil.
3. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova-Interfaol metodlar; mohiyati va qo‘llanilishi (metodik qo‘llanma)-Toshkent-2013 yil. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 5 | 2021 issn: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 366 www.ares.uz
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.-T.; 2013yil.
5. Yoldoshev J.G. Zamonaviy dars. Malaka oshirish; muammolar, izlanishlar, yechimlar. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOM.-T.; 2017yil.
6. Muslimova, A.F. O‘z-o‘zini takomillashtirishga va ijodiy o‘zini namoyon qilishga intilishlarni rivojlantirish / A.F. Muslimova // O‘rta maxsus kasb ta’limi. - 2010 yil - № 4.
7. N.A.Muslimov. M.N.Usmanbayeva. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari yor-damida mustaqil ta’limni shakllashtirish”.T. 2018 yil.

